



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, fevral.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	40
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
TEMIR YO'L YO'LLARINI TA'MIRLASH KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	46
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING XORIJ TAJRIBASI.....	51
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA BUDJET OCHIQLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA QONUNCHILIK BAZASINING EVOLYUTSIYASI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	55
Mamanov Alisher Umbarovich	
ENERGETIKA TARMOG'I KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH YO'LLARI.....	60
Xamdamova Gavxar Absamatovna	
SMART UNIVERSITET MODELINING XALQARO TAJRIBASI VA UNI YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHTIRISH MASALALARI.....	65
Saloxiddinova Sitora Baxodir qizi	
IJTIMOIIY OBYEKTlarda QURILISH XIZMATLARINI MOLiyALASHTIRISHNING NAZARIY – ASOSIY TAMOIYILLARI.....	68
Gapparov Azim Qayumovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATIGA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH.....	72
Zaripov Shoxboz Alijon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA IJTIMOIIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	75
Kolmatova Asila Menglimurod qizi	
РОЛЬ GREEN BONDS В МЕЖДУНАРОДНОЙ ФИНАНСОВОЙ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	81
Н.Т. Бекназарова	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK BOSHQARUV VA AUDIT.....	86
Shaymatova Nargiza Ashurovna	
NORASMIY IQTISODIYOTNING MAVJUDLIGINING NAZARIY MASALALARI VA UNI ANIQLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI.....	93
Alimardonov G'ayratjon Nuraliyevich	
DIGITAL TWIN-BASED DECISION SUPPORT FOR COST OPTIMIZATION AND RISK MANAGEMENT IN INFRASTRUCTURE SYSTEMS.....	99
Nelyufar Umarovna Dadabayeva	
PAXTA BO'LAKCHASINING OG'MA TO'RLI YUZA SIRTI BO'YLAB HAVO OQIMI TA'SIRIDAGI HARAKATINING MATEMATIK MODELI.....	108
Karimov Abdusamat	
АДАПТИВНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ К ВНЕШНИМ РИСКАМ И ГЕОЭКОНОМИЧЕСКИМ ТЕНДЕНЦИЯМ.....	115
Бабаджанов Шухрат Атахмович	
“TIBBIYOT BOZORINING UZLUKSIZ RIVOJLANISHI UCHUN MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI”.....	120
Abdumalikov Shoxjahon Jaloliddin o'g'li	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI VA BANDLIKKA TA'SIRI.....	124
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	



XORAZM VILOYATIDA ETNOGRAFIK TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING AHAMIYATI	129
Ro'zimatova Shaxlo Baltaboy qizi	



XORAZM VILOYATIDA ETNOGRAFIK TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING AHAMIYATI



Ro'zimatova Shaxlo Baltaboy qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: ruzimatovasahlo94@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xorazm viloyatida etnografik turizmni barqaror rivojlantirish imkoniyatlari o'rganilib, sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning hozirgi holati tahlil qilingan hamda etnografik turizmning hududiy turizmni barqaror rivojlantirishdagi o'rni ochib berilgan. Shuningdek, xalq hunarmandchiligi, etnografik muzeylar va turistik qishloqlarning madaniy merosni asrash hamda turizm infratuzilmasini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: mintaq, turizm, etnografik turizm, xalq hunarmandchiligi, etnografik muzeylar, turistik qishloq, infratuzilma, madaniy meros.

Abstract. This article examines the opportunities for the sustainable development of ethnographic tourism in the Khorezm region. The current state of reforms implemented in this field is analyzed, and the role of ethnographic tourism in ensuring sustainable regional tourism development is revealed. In addition, the importance of folk crafts, ethnographic museums, and tourist villages in preserving cultural heritage and developing tourism infrastructure is highlighted.

Key words: region, tourism, ethnographic tourism, folk crafts, ethnographic museums, tourist village, infrastructure, cultural heritage.

Аннотация. В данной статье исследуются возможности устойчивого развития этнографического туризма в Хорезмской области, анализируется современное состояние проводимых в данной сфере реформ, а также раскрывается роль этнографического туризма в обеспечении устойчивого развития регионального туризма. Особое внимание уделяется значению народных ремёсел, этнографических музеев и туристических деревень в сохранении культурного наследия и развитии туристической инфраструктуры.

Ключевые слова: регион, туризм, этнографический туризм, народные ремёсла, этнографические музеи, туристическая деревня, инфраструктура, культурное наследие.

KIRISH

Globallashuv sharoitida turizm sohasining tarkibiy segmentlaridan biri hisoblangan etnografik turizm hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boy tarixiy-madaniy merosga ega bo'lgan Xorazm viloyatida etnografik turizmni barqaror rivojlantirish mintaqaning iqtisodiy salohiyatini oshirish, aholi bandligini ta'minlash hamda milliy madaniy qadriyatlarni asrashning samarali vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasiga muvofiq, etnografik turizm iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy adolat va ekologik muvozanat tamoyillariga asoslangan holda tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu yondashuv Xorazm viloyatida turizm faoliyatini nafaqat iqtisodiy daromad manbai sifatida, balki mahalliy aholining hayot sifati va madaniy o'zligini saqlashga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy omil sifatida baholashni taqozo etadi.



Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, etnografik turizmning barqaror rivojlanishi, avvalo, hududiy iqtisodiy tizimda mahalliy aholi ishtirokining yetarli darajada ta'minlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Xorazm viloyati sharoitida aholining hunarmandchilik, milliy taomlar tayyorlash, an'anaviy marosimlar va mehmon uylari xizmatlariga jalb etilishi turizm xizmatlarining o'ziga xosligini oshirish bilan birga, daromadlarning hudud doirasida qayta taqsimlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, Xorazm mintaqasining ichki imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda etnografik turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar mavjud. Xorazm viloyatida istiqomat qilayotgan qoraqalpoq, o'zbek, turkman va boshqa millat vakillarining yashash tarzi, boy madaniyati, o'ziga xos urf-odatlar va an'analari, hayot tarzidan turizm maqsadlarida foydalanish orqali etnografik turizmni rivojlantirish imkoniyatlari tadqiq etildi. Jumladan, Xorazmga xos xalq hunarmandchiligi va amaliy san'ati, "jonli" etnografik muzeylar hamda nomoddiy madaniy meros shakllari etnografik turizmni rivojlantirish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi (1-rasm).



1-rasm. Xorazm viloyatining etnografik turizm resurslari¹

Shuningdek, Xorazm hunarmandchilik maktabi, Yangiariq, Xonqa va Modir qishlog'idagi kulolchilik markazlari, Xorazm zargarlik san'ati, Hozarasp miniatyura va naqqoshlik usto-shogird ijodxonalari, Xorazm xalfachilik san'ati, Xorazm raqsi, Xiva ipak gilamlarini to'qish ustaxonalari hamda Xiva qo'g'irchoq yasash ustaxonalari kabi madaniy resurslar Xorazm viloyatida etnografik turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjudligidan dalolat beradi [1].

Xorazm viloyatida etnografik turizmni yanada rivojlantirish uchun yangi turistik maskanlarni shakllantirish, mavjud turizm destinatsiyalarini takomillashtirish, yangi turistik yo'nalishlarni joriy etish hamda turizmni keng targ'ib qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu chora-tadbirlar turizm sohasida bandlik darajasini oshirish bilan birga, yuqori multiplikativ samaradorlik tufayli valyuta tushumlarining ko'payishiga, to'lov balansining yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va hududiy iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantiradi.

Xorazm viloyati turistik resurslarga boy hudud hisoblanadi. Mintaqada nafaqat madaniy-tarixiy turizm, balki safari, ekoturizm va etnografik turizm turlarini ham rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar mavjud.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Xorazm viloyati Xiva shahri bilan mashhur bo'lib, bu hududda madaniy-tarixiy turizm boshqa turizm turlariga nisbatan nisbatan rivojlangan hisoblanadi. Xiva shahri Xitoydan Rimga qadar cho'zilgan Buyuk Ipak yo'lining eng muhim chorahalaridan birida joylashgan. Xiva shahri 1990-yil 12-dekabrda YUNESKO tomonidan Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib "Butun jahon merosi" ro'yxatiga kiritilgan [2].

Shu bilan birga, bugungi kunda Xiva shahrining turistik salohiyatidan to'liq va samarali foydalanilayotgani haqida fikr bildirish qiyin. Ayrim tarixiy binolarning ta'mirtalab holatda ekanligi ularning imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanishga ma'lum darajada to'sqinlik qilmoqda. Amaliyotda ko'plab tarixiy obyektlarning asosan

1 Muallif tomonidan tatqiq qilindi



birinchi qavatlaridan foydalanilayotgani, ikkinchi qavatlar esa yetarli darajada jalb etilmayotgani kuzatiladi. Shu nuqtai nazardan, Xiva shahridagi tarixiy obyektlar salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida ularni ijara shartnomalari asosida investorlar ishtirokida rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Taqqoslashlar shuni ko'rsatadiki, Toshkent, Samarqand va Buxoro shaharlariga tashrif buyuruvchi turistlar soni hamda ularning qolish davomiyligi Xorazm viloyatiga nisbatan yuqoriroq. Mazkur hududlarda turistlarning o'rtacha qolish muddati 2-5 kunni tashkil etsa, Xorazm viloyatida bu ko'rsatkich o'rtacha 1,5 kunni tashkil etadi. Bunga ta'sir etuvchi omillardan biri sifatida Xorazm viloyatining respublika poytaxtidan taxminan 1100 kilometr uzoqlikda joylashganligini ko'rsatish mumkin.

Hisob-kitoblarga ko'ra, Xorazm viloyatida turist 1,5 kun davomida o'rtacha 300 AQSh dollari miqdorida xarajat qilsa, uning qolish davomiyligi 3 kungacha uzaytirilgan taqdirda bir nafar turistdan olinadigan o'rtacha daromad 600 AQSh dollariga yetadi. Shu bois turistlarning qolish muddatini uzaytirish maqsadida yangi turizm turlarini rivojlantirish, zamonaviy turistik loyihalarni ishlab chiqish va ularga investorlarni jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, qishloq hududlarida yangi ish o'rinlarini yaratishda turizmning o'rni beqiyosdir. Xorazm viloyati misolida "Turistik mahalla" va "Turistik qishloq" konsepsiyalarini rivojlantirish rejalashtirilmoqda. Ushbu tashabbus doirasida to'rtta qishloq tanlab olinib, ularda saksonga yaqin mehmon uylari barpo etish, hudud hunarmandchiligi, agro- va etnoturizm yo'nalishlarini namoyish etish ko'zda tutilmoqda. Xususan, Shovot tumanida joylashgan Beshmargan mahallasida turizm xizmatlarini yo'lga qo'yish uchun qulay sharoitlar mavjud bo'lib, bu hududda Yusuf Hamadoniy ziyoratgohi, Katqal'a yodgorliklari, Achchiqko'l hamda turistik xizmat ko'rsatish obyektlari joylashgan. Mazkur hududda turistik qishloq tashkil etilishi viloyatga tashrif buyuruvchi turistlar oqimini yanada oshirishga xizmat qilishi kutilmoqda [3].

Xorazm viloyatidan Amudaryo daryosining oqib o'tishi Urganch tumanida baliqchilik va ovchilik turizmini rivojlantirish uchun istiqbolli imkoniyatlar yaratadi. Hozirgi kunda viloyatda 600 dan ortiq baliqchilik fermer xo'jaligi faoliyat yuritmoqda, bu esa gastronomik va ekologik turizmni rivojlantirish uchun qulay sharoit hisoblanadi. Mazkur salohiyatdan samarali foydalanish maqsadida 71 ta ko'lda xalqaro standartlar darajasida xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish orqali sayyohlar oqimini ko'paytirish rejalashtirilmoqda.

Ayni paytda mazkur yo'nalishda asosan baliq ovlash va gastronomik xizmatlar ko'rsatilmoqda. Biroq mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib, Xorazm viloyatida ushbu yo'nalish bo'yicha o'ndan ortiq turizm xizmatlarini joriy etish mumkin. Ushbu yo'nalishni izchil rivojlantirish hamda kelgusida Xorazm viloyatini baliqchilik, ya'ni "Fishing culture" markaziga aylantirish ko'zda tutilmoqda. Hozirgi kunda Fransiya va Rossiya telekompaniyalari bilan hamkorlikda Xorazm baliqchiligi mavzusida turkum ko'rsatuvlar suratga olinayotgani mazkur yo'nalishga bo'lgan xalqaro qiziqishning ortib borayotganidan dalolat beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada asosan mintaqada etnografik turizmni barqaror rivojlantirish yo'nalishlari o'rganildi va tahlil qilindi, etnografik turizmni barqaror rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan resurslar, tematik parklar va turistik qishloqlar yoritilib berildi. Tadqiqot jarayonida kuzatuv, nazariy va statistik tahlildan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Viloyatda tematik parklarni rivojlantirish bo'yicha ham qator loyihalar ishlab chiqilgan. Xususan, Xorazm zaminidan yetishib chiqqan ko'plab buyuk ajdodlar xotirasini abadiylashtirish maqsadida ularning mum haykallari va fotozonalarini tashkil etish rejalashtirilmoqda. Ushbu loyiha dastlabki bosqichida to'rtta haykal "Ichon qal'a" hududida o'rnatilishi ko'zda tutilgan bo'lib, yil yakuniga qadar o'ndan ziyod ajdodlarimizning haykallarini joylashtirish mo'ljallanmoqda.

Hozirgi kunga kelib, viloyatdagi bir qator hududlar atroflicha o'rganilib, dastlabki tashkiliy ishlar boshlab yuborilgan. Jumladan, Urganch tumani Yuqori Do'rman qishlog'ining Anjirchi mahallasi, Xiva tumani Shumoxulum qishlog'ining G'ovuk mahallasi, Bog'ot tumani Xo'jalik qishlog'ining Qal'ajiq qal'a mahallasi hamda Yangiariq tumani Kattabog' qishlog'ining Kattabog' mahallalari o'rganilib, ularda turizm xizmatlarini shakllantirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilmoqda.

Urganch shahridan 90 kilometr uzoqlikda, Qoraqum cho'lining qumli hududida joylashgan "Qal'ajiq" ekoturistik shaharchasi o'ziga xos tabiiy va tarixiy salohiyatga ega noyob voha hisoblanadi. Shaharcha hududida ikkita asosiy diqqatga sazovor obyekt mavjud bo'lib, ulardan biri yoshi qariyb uch ming yilga teng bo'lgan qadimiy qal'a, ikkinchisi esa shifobaxsh xususiyatlarga ega sho'r ko'ldir. Qal'ajiq-Qal'a sho'r ko'l bo'yida joylashgan bo'lib, ko'hna Xorazm hududidagi eng qadimiy qal'alardan biri sanaladi. Qal'a devorlarining balandligi 14 metr, kengligi esa 2,5 metrni tashkil etadi. Qoraqum cho'li qum tepaliklarining qal'a tepasidan manzarasi tomoshabinlarda katta taassurot uyg'otadi.



Mazkur hududda sug'orish tizimiga ega qishloq xo'jaligi maydonlari bilan cho'l landshafti uyg'unlashgan. "Qal'ajiq" sog'lomlashtirish markazi hududda dam olish va davolanishning muhim maskani hisoblanadi. Bu yerda revmatizm, bel va bo'g'im og'riqlarini davolash uchun qulay tabiiy-iqlim sharoitlari mavjud bo'lib, ko'l qadim zamonlardan buyon shifobaxsh maskan sifatida tanilgan. Ko'l suvi tarkibidagi foydali minerallar yurak-qon tomir tizimi faoliyatini yaxshilashga va qon aylanishini barqarorlashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Suvning o'ziga xos shifobaxsh xususiyatlari bugungi kunga qadar o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda, shu sababli bu hududga dunyoning turli mamlakatlardan sayyohlar tashrif buyurmoqda.

Shifobaxsh dam olish maskanida qulay va samarali dam olish uchun zarur sharoitlar yaratilgan bo'lib, bu yerda mehmonxona, o'tovli lagerlar, shuningdek, atrof hududlarda tuyaqush fermasi va tuya boqish xo'jaliklari faoliyat yuritadi. Ko'l suvining yana bir o'ziga xos jihati shundaki, u sho'r va zich bo'lgani sababli unda cho'kib ketish holatlari deyarli kuzatilmaydi [4]. Ushbu xususiyatlari jihatidan ko'l Isroildagi O'lik dengizni eslatadi. Davolanish jarayonida cho'milgandan so'ng bemor avval nam qumga, keyin esa quruq qumga ko'miladi. Cho'l hududida joylashganiga qaramay, bu yerda havo toza va shaffof bo'lib, nafas olish yengil kechadi. Bir necha marotaba o'tkazilgan bunday muolajalardan so'ng og'riqlarning kamayishi kuzatiladi. Barcha muolajalar tibbiyot xodimlari nazorati ostida amalga oshiriladi. Olimlarning fikriga ko'ra, ko'l qo'shni hududlardagi yer osti suvlari oqimi ta'sirida shakllangan bo'lishi mumkin. Ko'lning yana bir qiziqarli jihati shundaki, mintaqada quruq mavsum kuzatilgan davrlarda suv hajmi ko'payadi, sernam mavsumlarda esa, aksincha, kamayadi.

Qal'ajiq-Qal'a majmuasini O'zbekistonning "Xumson", "Omonxona", "Oqtosh" va "Zomin" kabi mashhur sog'lomlashtirish maskanlari bilan qiyoslash mumkin. Yaqin yillarda shaharchani kengaytirish, qo'shimcha sayyohlik obyektlarini barpo etish, shuningdek, "Qal'ajiq" sanatoriyasini tashkil etish va unga investitsiyalarni jalb qilish orqali turistlar oqimini oshirish rejalashtirilmoqda.

Xiva tumani G'ovuk mahallasi ham viloyatdagi turizm imkoniyatlari yuqori bo'lgan hududlardan biri hisoblanadi. Mazkur mahallada 610 ta xonadon mavjud bo'lib, 1100 nafarga yaqin aholi istiqomat qiladi. Hududda bog'dorchilik sohasi yaxshi rivojlangan bo'lib, aholi asosan anor yetishtirishga ixtisoslashgan. Ushbu holat agro, eko va etnoturizm yo'nalishlarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Bundan tashqari, hudud Urganch-Xiva yo'nalishidagi asosiy avtomobil yo'li bo'yida joylashganligi sayyohlar uchun qo'shimcha qulayliklar yaratib, tashriflar sonining oshishiga xizmat qiladi [8].

Xorazm viloyati hududining katta qismi cho'l zonasidan iborat bo'lgani sababli bu yerda safari turizmini rivojlantirish imkoniyatlari ham mavjud. Jumladan, Qo'shko'pir va Tuproqqal'a tumanlarida safari turizmini rivojlantirish uchun zarur tabiiy sharoitlar mavjud bo'lib, ushbu hududlarda maxsus o'tovlar tashkil etish, kvadratsikl va yo'l tanlamas avtomobillar ijarasini yo'lga qo'yish hamda tuya fermalarini barpo etish sayyohlar oqimini yanada oshirishga xizmat qilishi mumkin [5].

Shu bilan birga, etnografik turizmni barqaror rivojlantirishda xususiy sektorning faol ishtiroki muhim institutsional omil hisoblanadi. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari, investitsiyaviy rag'batlantirish choralari joriy etish orqali turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xizmatlar sifati va raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyati yaratiladi. Bu esa Xorazm viloyatida etnografik turizm mahsulotlariga ichki va tashqi bozorlarda barqaror talab shakllanishiga zamin yaratadi.

Mazkur amaliy natijalar etnografik turizm, ekoturizm, transport, sanatoriy, mehmonxona xizmatlari va boshqa turizm yo'nalishlarining uyg'un rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu turistik klaster bir vaqtning o'zida 5 ming nafarga yaqin sayyohga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, yil davomida 200 ming nafargacha turistni qabul qilish salohiyatini shakllantiradi hamda 500 nafarga yaqin aholini doimiy va mavsumiy daromadli ish bilan ta'minlaydi. Shuningdek, 2025-yildan boshlab mehmonxona xizmatlarini rivojlantirish maqsadida tadbirkorlar uchun qator imtiyozlar joriy etilib, 2026-yil yakuniga qadar yangi mehmonxonalardagi har bir xona uchun subsidiya ajratish tizimi yo'lga qo'yilishi hududda etnografik turizm infratuzilmasini barqaror rivojlantirishga qaratilgan muhim institutsional qo'llab-quvvatlash chorasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mintaqaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish maqsadida 2026-yilda Xiva shahrida umumiy qiymati 38 million AQSh dollariga teng bo'lgan uchta yirik loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan. Jumladan, Yaqin Sharq tajribasi asosida 20 million dollarlik "Safari tourism" majmuasi, shuningdek, 5 million dollarlik ko'l bo'yida ekoturizm maskani barpo etilishi ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, Tuproqqal'a tumanida "Sardoba" ko'li hududida 5 million dollarlik turizm zonasini tashkil etish loyihasi amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda [6].

Mazkur mexanizm davlat boshqaruvi organlari, mahalliy aholi va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlash, madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish, investitsiyaviy faollikni rag'batlantirish hamda raqamli texnologiyalar orqali turistik mahsulotlarni targ'ib qilishni nazarda tutadi. Ushbu omillarning uyg'un amal qilishi natijasida etnografik turizm xizmatlarining raqobatbardoshligi oshadi, turistik oqimning barqaror o'sishi ta'minlanadi hamda hududning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga erishiladi [7].



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyatida etnografik turizmni barqaror rivojlantirish uchun boy moddiy va nomoddiy madaniy meros, tarixiy-etnografik yodgorliklar hamda an'anaviy hunarmandchilik turlari muhim resurs bo'lib xizmat qiladi. Mavjud etnografik muzeylar va yodgorliklarni ilmiy jihatdan chuqur o'rganish, ularni asrab-avaylash va zamonaviy talablarga mos ravishda turizm jarayoniga integratsiya qilish mazkur yo'nalishning barqarorligini ta'minlaydi.

Shuningdek, mintaqadagi nomoddiy madaniy meros shakllarini tizimli saqlash va targ'ib etish, ularni etnografik turizm dasturlarida faol qo'llash turistik mahsulotlarning jozibadorligini oshiradi hamda hududning madaniy o'zligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Turistlarga xizmat ko'rsatish texnologiyalarini takomillashtirish, etnografik turizm dasturlarining sifatini oshirish va ularni bozor talablariga moslashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim muassasalarida "Turizm va mehmondo'stlik" ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalariga "Etnografik turizm" fanini kiritish kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga xizmat qilishi asoslandi. Shu bilan birga, viloyat turoperatorlari tomonidan ishlab chiqilayotgan turistik marshrutlarga etnografik turizm obyektlarini kiritish va ularni faol targ'ib etish hududiy turizm salohiyatini oshirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, Xorazm mintaqasining etnografik turistik resurslarini saqlash va xalqaro miqyosda e'tirof etish jarayonida UN Tourism va YUNESKO kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada faollashtirish muhim hisoblanadi. Tarixiy-me'moriy obyektlarga boy tuman va shaharlarda mahalliy aholining hayot tarzi, xalq hunarmandchiligi, amaliy san'ati va nomoddiy madaniy merosini targ'ib qiluvchi xalqaro festival va madaniy tadbirlarni tashkil etish esa Xorazm viloyatining turistik jozibadorligini oshirishga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hamda etnografik turizmning barqaror rivojiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ismoilov I.S. & Islomov I.A. (2021). O'zbekistonda turizm sohasining davlat rivojiga qo'shgan hissasi. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 1(1), 52-56.
2. Ismoilov I.S. (2021). O'zbekistonda turizmni rivojlantirish tarixiga nazar. Academic Research in Educational Sciences, 2(10), 999-1007.
3. Xorazmiy.uz rasmiy sayti ma'lumotlari. (2024). <https://xorazmiy.uz/oz/pages/view/528>
4. To'xliyev I. (2008). Turizm asoslari. Toshkent.
5. To'xliyev I. Qudratov F. & Pardayev M. (2008). Turizmni rejalashtirish: darslik. Toshkent: Iqtisod va moliya. 262 b.
6. To'xliyev I. (2010). Turizm asoslari. Samarqand: SamISI. 271 b.
7. Xidirova G.R. & Raxmatullayeva F.M. (2020). Mintaqaviy turizm: o'quv qo'llanma. Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti. 176 b.
8. Xomidov Q.Q. (2023). O'zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqaruv samaradorligini oshirish yo'llari. Economics and Innovative Technologies, 154-160.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>